



Semantic development of the Old English action verb Stīgan

Sitora MARDONOVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2023

Received in revised form

10 April 2023

Accepted 25 April 2023

Available online

15 May 2023

Keywords:

Stīgan,
semantics,
etymology,
equivalent,
action verb,
lexical-semantics,
diachronic,
contrast,
lexeme.

ABSTRACT

The aim of this article is to identify the lexical and semantic variability, semantic enrichment, and the reasons for the historical development of some motion verbs in modern English. The main focus is on the lexical-semantic development of the Old English verb “stīgan” and the definition of their development factors.

2181-3701/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss3-pp58-62>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan “Stīgan” harakat fe’lining semantik taraqqiyoti

АННОТАЦИЯ

Калит сўзлар:

Stīgan,
semantika,
etimologiya,
ekvivalent,
yurish harakati fe’li,
leksik-semantika,
diaxronika,
kontrast,
leksema.

Ushbu maqola oldiga qo’yilgan maqsad zamonaviy ingliz tilidagi ba’zi yurish harakat fe’llarining tarixiy taraqqiyoti davomida leksik va semantik o’zgaruvchanligi, ma’no jihatdan boyiganligi va uning sabablarini aniqlashga qaratiladi. Asosiy e’tibor zamonaviy ingliz tilidagi qadimgi ingliz tili davrida ishlatilgan “stīgan” fe’lining leksik-semantik taraqqiyoti va uning rivojlanish omillarini belgilash tahlili qilindi.

¹ Assistant, Department of Methodology of Teaching English, Faculty of English-II, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Семантическое развитие древнеанглийского глагола Stīgan

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Stīgan,
семантика,
этимология,
эквивалент,
глагол,
лексико-семантика,
диахрония,
контраст,
лексема.

Целью данной статьи является выявление лексической и семантической изменчивости, семантического обогащения и причин исторического развития некоторых глаголов в современном английском языке. Основное внимание уделяется лексико-семантическому развитию глагола «идти, пробираться» в современном английском языке («stīgan» в древнеанглийском языке) и определению факторов их развития.

Kirish

Barcha ob'yekt va atrofimizni o'rab turgan narsalar doimiy harakatda bo'ladi. Shuning uchun fe'l nutqning muhim qismi hisoblanadi va har qanday tilda unga alohida e'tibor qaratiladi. Ingliz tilini o'rganayotganda, so'z boyligingizni tinimsiz fe'llar bilan to'ldirish kerak. Fe'llar tufayli nutq jonli va qiziqarli bo'ladi, ularning yordami bilan o'z fikrlaringizni ifodalash osonroq kechadi. Tildagi fe'l turkumini yaxshiroq anglash maqsadida ular ma'lum bir bo'limlarga ajratiladi. Asosiy bo'limlardan biri bu harakat fe'llari hisoblanadi. Tabiiyki, ushbu bo'lim bir nechta kichik bo'limchalarga bo'linadi: ularga harakat turlari, yuqoriga va pastga harakatlanish, ta'qib qilish, tezlik, suvda harakatlanish, aylanma harakatlar kiritiladi.

Tilshunoslikning "makon"ga bo'lgan umumiy qiziqishi va turli tillarda bo'shliqni boshqacha tarzda ifodalashi borasida, Levinson 2003; va Bloom, 1996; Xikman va Robert 2006, Levinson va Uilkins 2006, Evans va Chilton 2010, Filipovich, Jaszczolt 2012, Vulchanova va van der Zee 2012 tilshunoslikda fe'l sistemasining taraqqiyoti hamda tahlili xususida ko'plab ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, tillarda "harakat" ma'nosi qanday tarzda ifodalanishini o'rganish, Talmining (1975, 1985) fe'llarni leksikallashtirish bo'yicha ishidan boshlanib, ayniqsa, juda samarali tadqiqot sohasi bo'lgan. Talmining dastlabki maqolalaridagi asosiy g'oya shundan iboratki, olim haqiqiy dunyoda "harakat" "voqea"da bir nechta semantik komponentlar mavjud va tillar jumlaning ayrim elementlarida odatiy tarzda ifodalanadigan komponentlar turidan farq qiladi deb fikr yuritadi (Talmi 1975, 1985 – 85 b).

Asosiy qism

Mazkur maqolada asosan qadimgi ingliz tili davrida ishlatilgan "stīgan" fe'li ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Bugungi kunda eng muhimi qadimgi ingliz tili davrida ifodalanadigan fe'llar zamonaviy ingliz tili davrida qanday ma'noda ishlatilayotganini asoslab berishdan iboratdir. Shuni ta'kidlash joizki, maqsadimiz qadimgi ingliz tili davrida ishlatilgan fe'llar hozirgi ingliz tili davrida ishlatiladigan fe'llar ma'nosiga mos kelishini aniqlashdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, qadimgi ingliz tili davri kontekstlarida uchragan fe'llar zamonaviy ingliz tilida ham namoyon bo'lishi tahlil qilingan. Ingliz tili asosan qadimda fransuz, nemis va lotin tillaridan kelib chiqqan. Shundan ko'rinib turibdiki, qadimgi ingliz tili davrida ishlatilgan fransuz tilidan o'zlashgan "monter" ya'ni qadimgi ingliz tili davrida "mounten" fe'li shaklida "yuqoriga chiqmoq, tirmashib chiqmoq" ma'nolarida ifodalangan.

Masalan:

1. They anoon Gonne up to mounete and doun descende. Ular toqqa ko'tarildi. Mazkur misolda "mounete" fe'li ishlatilgan, ya'ni ko'tarilmoq ma'nosini ifodalagan. Mazkur fe'l yurish harakati fe'li hamda neytral harakat shaklida ishlatilgan. Fe'lining ma'no ko'lami kontekstdan kelib chiqqan holda aniqlangan (Herbst & Klotz 2003: 107– 23; Svensén 2009: 253– 79).

Demak, shunday fe'llar qatoriga qadimgi ingliz tilida ishlatilgan "stigan" fe'li ham kiritilgan. Mazkur fe'l harakat hamda neytral fe'llar guruhiga mansub. Qadimgi ingliz tili davrida bilingual lug'atlar kirib kelishi bilan "stigan" fe'lining ko'plab ekvivalent ma'nolari kelib chiqqan. Mazkur fe'l o'timli, ayni damda o'timsiz fe'llar qatoriga ham kiritilgan. **Masalan:**

I. intransitive (o'timsiz). Yurish harakat ma'nosida ifodalangan fe'llar.

(1) Ko'tarilish yoki tushish ma'nosida.

(2) Yuqori pog'onalarga ko'tarilish yoki toqqaa ko'tarilish ma'nosida.

(2 a) kemaga kirish, toqqa tirmashib chiqish ma'nosida.

(3) harakat pastga tushish bo'lganda ishlatiladi.

II. transitive (o'timli). Ko'tarilish harakat ma'nolarida ishlatilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga qaraganda, hozirgi zamon ingliz tili davrida "climb" tirmashib chiqmoq fe'li yurish harakati fe'llari bo'limiga kiritilmaydi. Vaholanki ushbu fe'l qadimgi ingliz tili davrida "stigan" fe'lining ekvivalenti sifatida ishlatilgan va yurish harakati fe'llari bo'limiga kiritilgan. Ana shunday yondashuvlarni Fanegoning qadimgi va o'rta davr ingliz tili fe'llari ekvivalentiga asoslangan ro'yxatini zamonaviy ingliz tili davridagi lug'atlarda mujassamlashtirganini ko'rishimiz mumkin (Fanego, 2012; 40-44). Fanego o'zining lug'atida "stigan" fe'li yurish harakati fe'llar qatoridagi "climb" ya'ni "toqqa chiqmoq" fe'lga to'g'ri kelishini ta'kidlaydi. Olim o'z tadqiqotida ma'lum bir figurali jismning harakatlanishini tasvirlaydi (Fanego, 2012; 41).

Fanego tadqiqotida turli xil fe'l sezgilarini atamalash uchun konstruktiv yondashuvlar (kontekstual tarzda) foydalanadi va fe'l semantikasi hamda qurilish semantikasining o'zaro ta'sirini kuzatadi.

Masalan:

2. Ða **stah** and com smylte reng.

"Havo tindi va yomg'ir sepaldi"

3. Ða bioð genemde deade, & ða **stigaþ** on helle.

"Ular o'ldik" deb baqirishdi va tepalikka ketishdi"

Ko'rinib turibdiki, berilgan birinchi misolda "stigan" fe'li neytral harakat sifatida ya'ni "tinmoq" fe'lini ifodalab kelgan va ishlatilgan. Ikkinchi misolda ushbu fe'l harakat fe'li sifatida ya'ni "bormoq" fe'li yordamida ishlatilgan.

Yuqorida keltirilgan misollar va fikrlardan kelib chiqib, qadimgi ingliz tilida harakat fe'llari qatnashgan ba'zi bir misollarni yo'nalishga nisbatan ishlatilgan fe'llarni ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz.

4.(a) He **stah up on an treow**

"U daraxtga chiqdi"

(b) Zachee **stih** ardlice **adune**

"Zacheus, tez pastga tush"

Qadimgi ingliz tili davrida ifodalangan, "stigan" fe'li vertikal harakat ma'nosini ifodalab kelgan va ushbu fe'l tez-tez ishlatilgan (yuqoriga yoki pastga bo'lgan harakat (1a

- b) ga qarang). Ushbu misolda “stīgan” fe’lining berilgan ma’nosi bir vaqting o’zida har qanday yo’nalishda harakatlanish uchun foydalanilgan. Bosworth & Toller, An Anglo-Saxon Dictionary davrida har qanday yo’nalishni bitta fe’l asoslab berganligini ko’rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan misolda “stīgan” fe’li “vertikallik” hamda kodlangan ma’no sifatida ishlatilgan.

5. Ðu forhogdes alle **stigende** from rehtwisnissum ðinum forðon unreht geðoht heara is

“Sening solihligingdan chiqqanlarning barchasini yomon ko’rding, chunki ularning fikri adolatsizdir”.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan beshinchi misolda yuqoriga yoki pastga qarab harakat ifoda etilmaganini kuzatishimiz mumkin (4). Mazkur misolda metafora qo’llanilgan va ‘yaxshilik yuqorida, yomonlik esa pastda’ deb hisoblanib vertikal harakat kuzatilgan. Shu sababli Xudoning qonunlaridan chetga chiqish pastga harakat deb metaforadan foydalanilgan. Biroq, qadimgi ingliz tili davrida odatda, sun’iy yo’ldosh harakatning ifodalanganligini “stīgan” fe’li ya’ni – “yuqoriga” yoki “pastga” kabi ma’nolarni ifodalab kelgan. Bundan tashqari qadimgi ingliz tili davrida lotin tilida buni yorqin nashrlari “gewītan” “ga ketish, ketish” ma’noli fe’llari bilan ham ifodalanib kelgan. Ikkinchi misolda vertikal bo’lmagan harakatlarning talqinini “gewītan” fe’li qo’llab-quvvatlab kelgan. Qadimgi ingliz tili davrida “stīgan” haqida umumiy ma’lumotlarga tayanib, ushbu fe’lning ma’nosi dastlab dekontekstuallashgan ma’noda yurish harakat fe’li harakat sifatida ishlatilgan. Harakatning yo’nalishi sifatida emas balki neytral harakat sifatida ishlatilgan va shuning uchun ushbu fe’l toifalarga bo’lingan.

6. Leode on wang stigon

“Odamlar quruqlikka ketishdi”

Oltinchi misoldan ko’rinib turibdiki harakat neytral holatda ifodalanib kelmoqda. Ya’ni insonlar tomonidan bajarilayotgan harakat yurish harakatiga tengdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Fanego T. Motion events in English // The emergence and diachrony of manner salience from Old English to Late Modern English. *Folia Linguistica Historica* 33., 2012. -P 29– 85.
2. Judith H. Motion and the English verb //Oxford University Press. 2017-69-70
3. Hoad T. The Concise Oxford Dictionary of English Etymology. Oxford New York Oxford University Press., 2017. – P 409-411.
4. Herbst, Thomas & Michael Klotz. 2003. *Lexikografie*. Paderborn: Schöningh.
5. Slobin Dan I. Two ways to travel: Verbs of motion in English and Spanish // *Grammatical constructions: Their form and meaning*., Oxford: Clarendon Press., 1996. - P 195– 220.
6. Slobin Dan I. What makes the manner of motion salient? // *Explorations in linguistic typology, discourse, and cognition // Linguistic systems and cognitive categories*., Amsterdam: John Benjamins., (Typological Studies in Language 66)., 2006. - P 59– 81.
7. Traugott E. Richard B. Regularity in semantic change. Cambridge, U.K.: Cambridge University Press., 2002.

8. Traugott E. Linguistic levels: Semantics and the lexicon. // English historical linguistics: An international handbook, Berlin: De Gruyter., 2012. - P 164– 77.
9. Traugott E. Syntax. The Cambridge history of the English language. Vol. I: U.K.: Cambridge University Press, 1992. - P 168– 289.
10. Talmy, L. Lexicalization patterns: Semantic structure in lexical forms.
11. In Timothy Shopen: Cambridge, U.K.: Cambridge University Press, 1985.-57–149.